



AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR. (Sud amaliyotida ko'rilgan keyslar asosida)

Xaydaraliyeva Nafosat Xomidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs
talabasi

e-mail: xaydaraliyeva18@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar hamda tashkilot, agentliklarning faoliyati o'rganiladi hamda yuritayotgan islohotlari to'g'risida fikr yuritiladi. Shu bilan birga tahlil qilib o'tilgan hujjatlar asosida xalqaro sud amaliyotida ko'rilgan keyslar tahlil qilinadi. Maqola oxirida maqola yuzasidan muallifning takliflari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ayollar huquqlari, konvensiya, huquqlarini ta'minlash.

Аннотация: В статье рассматриваются международно-правовые акты, а также деятельность организаций и учреждений, направленная на обеспечение прав женщин. При этом на основе проанализированных документов будут проанализированы дела, рассматриваемые в международной судебной практике. В конце статьи представлены предложения автора по статье.

Ключевые слова: права женщин, конвенция, обеспечение их прав.

Abstract: This article discusses international legal instruments and the activities of organizations and agencies aimed at ensuring women's rights. At the same time, cases considered in international judicial practice are analyzed based



on the analyzed documents. At the end of the article, the author's proposals regarding the article are presented.

Keywords: *women's rights, convention, ensuring their rights.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni davlatimizga qonunchiligiga moslashtirish – implementatsiya qilish, xalqaro shartnomalarda ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish shular jumlasidandir. Ayni paytda davlatimiz BMTning 6 ta asosiy shartnomasi, 4 ta fakultativ protokoliga, umumiy hisobda 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, xalqaro tashkilotlar – BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalari, amaldagi qonunchilik, ilg'or xorijiy tajriba, aholi fikrini o'rganish hamda xalqaro maslahatlashuvlar natijasida mamlakatimizda ham Inson huquqlari O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, mazkur strategiyaning amalga oshirish doirasi bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari xalqaro umum e'tirof etilgan **Inson huquqlari bo'yicha kengash, Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash, inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar, BMTning inson huquqlari bo'yicha maxsus ma'ruzachilari** kabi mexanizmlar ham faoliyat yuritadi. Ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator xalqaro mexanizmlar ham mavjud. Ularning ayrimlari **"Fuqaroviy va siyosiy huquqlari to'g'risida"**gi xalqaro pakt, **"Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"**gi xalqaro pakt, **"Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"**gi xalqaro konvensiya, **"Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida"**gi konvensiya, **"Pekin Harakat platformasi"**, **"Maputo protokoli"** va boshqalar ayollar huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan.



“Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt – mazkur pakt davlatlarda erkaklar va ayollarning fuqarolik va siyosiy huquqlaridan bir xil tarzda foydalanish xususida umuminsoniy qoidalar belgilangan ammo shunga qaramay ayollarning huquqlari ham alohida normalar bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Masalan paktning **6-moddasi beshinchi bandida** *“o‘n sakkiz yoshdan kichik shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun o‘lim hukmi chiqarilmaydi va homilador ayollarga nisbatan bu hukm ijro etilmaydi”*, **23-modda ikkinchi bandida** *“nikoh yoshiga to‘lgan erkaklar va ayollarning nikohdan o‘tish hamda oila qurish huquqi tan olinadi”* deyilgan. Mazkur xalqaro paktning amalda bajarilishi yuzasidan nazoratni olib boruvchi 18 ta mustaqil organlardan biri bo‘lib Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mita faoliyat yuritadi. Mazkur pakti imzolagan davlatlar qo‘mitaga mamlakat ichida insonlarning fuqaroviy va siyosiy huquqlari amalga oshirilishi yuzasidan muntazam ravishda hisobot taqdim etib kelishadi. Ishtirokchi davlatlar dastlab paktga qo‘shilganlaridan keyin bir yildan keyin, undan so‘ng Qo‘mitaning talabi bo‘yicha so‘ralgan vaqtda hisobot berishadi. Qo‘mitaning vazifasi har bir ishtirokchi davlatni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Ular quyidagilar:

- huquqlardan foydalanishni kuchaytiruvchi qonunlar, siyosat va amaliyotlarni qo‘llab-quvvatlash;
- pakt huquqlarini buzuvchi choralarni bekor qilish yoki tegishli tarzda o‘zgartirish;
- ishtirokchi davlatlar insonlarning huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish bo‘yicha harakat qilmasa, tegishli ta’sir choralarni ko‘rish;
- ishtirokchi davlatlar taqdim etgan qonunlar, siyosatlar va amaliyotlarning Pakt nuqtayi nazaridan tegishli ravishda ko‘rib chiqish.

Qo‘mita ko‘p mamalakatlarda fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanishni rag‘batlantirishda haqiqiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘tgan yillar davomida qo‘mita



qonunchilik, siyosat va amaliyotda ham umumiy milliy darajada, ham alohida holatlarda ko‘plab o‘zgarishlarga olib keldi.

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt – mazkur paktda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktdan farqli o‘laroq ayollarning mehnat qilishda erkaklarnikidan kam bo‘lmagan miqdorda ish haqi to‘lanishi nazarda tutilgan. Bu esa ayollarning iqtisod sohasida ham o‘z o‘ringa ega ekanliklarini bildiradi.

Mazkur xalqaro pakt asosida ish yurituvchi **Inson huquqlari bo‘yicha komissiya** dastlab 1946-yilda tashkil etilgan. BMT tashkil etilganidan bir yil o‘tib tashkil topganidan shuni anglashimiz mumkin, BMT organlari tizmida alohida o‘ringan ega bo‘lgan. Komissiya dastlab tashkil topganda 53 nafar a‘zo davlatdan iborat bo‘lgan va 3 yil muddatga saylangan. Komissiyada inson huquqlari buzilishlariga oid ariza va xabarlarini ko‘rib chiqish vakolati bo‘lgan, ammo 2000-yillarda komissiya faoliyati sustalasha bordi. Chunki o‘sha davrlarda inson huquqlarini qo‘pol buzishni maqsad qilgan davlatlar hamda siyosiy harakatlar avjiga chiqqan edi. 2006-yil 27-mart Jenevada komissiyaning oxirgi yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan va shu yildan boshlan komissiya faoliyati tugatilgan.

Inson huquqlari bo‘yicha komissiya tugatilganidan so‘ng o‘rniga **Inson huquqlari bo‘yicha kengash** tashkil etilgan. Birinchi yig‘ilishi o‘sha yilning o‘zida iyun oyida bo‘lib o‘tgan. Bu kengash ham komissiya kabi 3 yil muddatga saylangan lekin a‘zolari 47 nafarni tashkil etgan. Kengash shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasiga e‘tiborini qaratadi. 2020-yil 13-oktyabr kungi saylov natijalariga ko‘ra O‘zbekiston BMT ning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a‘zosi etib saylandi.

“Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiya – mazkur konvensiya to‘laligicha ayollar va ularning huquqlariga bag‘ishlangan deyish mumkin. Bu konvensiyaning muqaddima



qismida ham ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi e'tirof etilgan holda qabul qilinganida ham ma'lum bo'ladi. Bu konvensiyaning e'tiborimizni tortgan jihati shu bo'ldiki, **10-moddasining "f" qismida** maktabni tugatmayotgan qizlar sonini kamaytirish va maktabni barvaqt tark etgan ayollar va qizlar uchun alohida dastur ishlab chiqish va jismoniy tayyorgarlik va sport mashg'ulotlarida faol qatnashish uchun bir xil imkoniyatlar yaratish qismi ayol-qizlarga berilgan huquqlarning eng yuqorisi, deb hisobladik. Negaki, O'zbekiston davlatining ayrim hududlari, chet davlatlarda qizlarni juda erta turmushga berish holatlari kuzatilmoqda. **The Guardian** nashrining xabar berishicha, Iroq Adliya vazirligi 9 yoshga to'lgan qizlarni turmushga chiqishiga ruxsat beruvchi qonun loyihasini taqdim etgan. Ammo bu vaziyat aholi orasida ko'plab noroziliklarga sabab bo'lgan. Yuqorida keltirilgan "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi paktda ham, "CEDAW" va boshqa konvensiyalarda ham erta turmushga qarshilik ifodalanadi.

CEDAW konvensiyasi haqida so'z borar ekan shuni ta'kidlash lozimki, konvension organ sifatida **Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qo'mitasi** ham mavjud bo'lib, 2018-yil 27-aprelda 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo'shgan hissasi bo'yicha yuqori darajadagi siyosiy forum tashkil etilgan. Va yana shuni ta'kidlash kerakki, konvensiyaning "tasarrufida" 1979-yil 18-dekabrda **Xotin qizlarning kamsitishning barcha turlariga barham berish qo'mitasi** tashkil etilgan. Konvensiyaning 17-moddasida ham Qo'mita haqida so'z boradi. Qo'mita konvensiyani ratifikatsiya qilgan ishtirokchi davlatlar o'rtasida yopiq ovoz berish yo'li bilan saylanadigan 23 ta ekspertdan iborat bo'ladi. Mazkur ekspertlar davlatlar tomonidan vakil sifatida taqdim etilib, ular 4 yilga saylanadilar va o'z davlatlarining huquqlarini emas, balki umumjahon miqyosda insonlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyat olib boradi.



Qo'mita konvensiya doirasida belgilangan huquq va majburiyatlarni o'z vaqtida amalga oshirish yuzasidan taqdim etilgan hisobotlarni o'rganib chiqadi. Konvensiyaning 21-moddasiga ko'ra Qo'mita davlatlar taqdim etgan hisobotlar yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini berish huquqiga ega. Fakultativ protokolga ko'ra qo'mita kelib tushgan jiddiy muammolar yuzasidan aniq faktlar asosida tergov ishlarini ham o'tkazadi.

Qo'mita ikki haftadan ko'p bo'lmagan muddatda, yanvar va iyun (yoki iyul) o'zining sessiyalarini o'tkazadi, lekin BMT Bosh Assambleyasining oxirgi qaroriga ko'ra sessiya o'tkazish muddati uch haftaga uzaytirildi. Qo'mitaga taqdim etiladigan masalalar Bosh kotibga belgilangan tartibga rioya qilgan holda prinsiplarga mos ravishda taqdim etilishi lozim.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasidan farqli ravishda ushbu qo'mitaga **Ayollar ahvolini yaxshilash bo'yicha bo'lim** tomonidan xizmat ko'rsatiladi. **1993-yil Venada** inson huquqlari bo'yicha butunjahon konferensiyasida ayollar huquqlari keng muhokamaga taqdim etilgan. Buning natijasida deklaratsiya ham qabul qilingan. 1985-yil Keniya (Nayrobi) da o'tkazilgan konferensiya **1995-yil Pekinda** bo'lib o'tdi va **Pekin deklaratsiyasi** hamda **Pekin harakat platformasi** ishga tushirildi. Pekin harakat platformasi samarali davlat siyosatini amalga oshirish hamda nodavlat tashkilotlarning ayollar huquqlarini himoya qilishda tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan xalqaro hujjat bo'lib hisoblanadi.

Pekin harakat platformasining (shartli ravishda) 112-bandida shunday keltirilgan: *“ayollarga nisbatan zo'ravonlik bu ularning tenglik, taraqqiyot va tinch maqsadlarga erishishlariga to'sqinlik qiladi. Zo'ravonlik ayollarning erkin yashashiga hamda inson huquqlarini buzadi. Nayrobi (Keniya) konferensiyasidan keyin unga qarshi kurash ancha kengaytirildi. Barcha yirik jamiyatlarda ayollar va qizlar jismoniy, jinsiy va psixologik zo'ravonliklar ta'siriga duchor bo'ladilar.*



Ayollarga nisbatan qilingan zo‘ravonliklarning sababi past ijtimoiy va iqtisodiy holat ham bo‘lishi mumkin.”

Yana bir ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tashkilot – **BMTning Ayollar jamg‘armasi (UNFPA)**. UNFPA dunyo aholisining ko‘pchilik qismi yashaydigan 150 dan ortiq mamalakatlarda o‘z faoliyatini olib boradi. Jamg‘armaning asosiy maqsadi har bir homilador ayolni va har bir qizning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Asosiy faoliyati ayollar reproduktiv salomatligini ta‘minlashga qaratilgan jamg‘arma 1993-yildan e‘tiboran o‘z faoliyatini boshlagan va **1994-yildagi Aholi va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyaning (ICPD) harakat** dasturiga asoslanib boshqa mamalakatlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi. 2014-yil fevral oyida e‘lon qilingan **ICPD Beyond 2014 Global Report** dasturida qancha yutuqlarga erishilgani va qilinishi kerak bo‘lgan ishlar haqida ma‘lumotlarni ochiqsladi. Mazkur jamg‘arma asosan ayollarda OITS kasalligi va ularning homiladorlik davrlari xavfsiz kechishlarini ta‘minlaydi. Chunki ayollarga homiladorligida qilinadigan zo‘ravonliklar ular boshqa payt qilinadigan zo‘ravonliklardan ancha yuqoriroqdir. Nafaqat jismoniy, balki ruhiy hamda psixologik zo‘ravonliklar ayol hamda hali tug‘ilmagan bolaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tashkilotlar, jamg‘armalar, agentliklar soni talaygina. Ularning samarali faoliyati faqatgina ayollarning rivojlanishi, erkin kamol topishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘mak beradi.

O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan xalqaro sud amaliyotida ko‘rilgan keyslarni tahlil qilsak, **Yevropa sudi** tomonidan ko‘rilgan sud hukmlarini tahlil qilish davomida quyidagi vaziyat e‘tiborimizni tortdi. **“Opuz Turkiyaga qarshi”** deb nomlangan mazkur vaziyatimizda arizachilar **“Yevropa inson huquqlari” konvensiyasining 2-modda (yashash huquqi), 3-modda (qiynoqlarni**



taqiqlash) va 14-modda (diskriminatsiyani taqiqlash) larni asos qilib keltirgan. Nahide Opuz ismli ayol va uning onasi uzoq yillar davomida turmush o'rtog'ining zo'ravonligiga duch kelishgan. Turkiya hukumati bu zo'ravonlikni to'xtatish uchun yetarlicha choralar ko'rmagan. Vazirlar qo'mitasining zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha tavsiyanomasi (Rec(2002)5, 2002-yil 30-aprel) a'zo davlatlar zarur hollarda zo'ravonlikka qarshi milliy siyosatni joriy etishlari, ishlab chiqishlari va/yoki takomillashtirishlari kerakligini ta'kidlagan. Unda, xususan, ayollarga nisbatan og'ir zo'ravonlik uchun jazo qo'llash va jabrlanuvchilarning jinoiy ish qo'zg'atishi va samarali himoyalanihini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etish, shuningdek, prokurorlar tomonidan ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atish yoki qo'zg'atmaslik to'g'risida qaror qabul qilishda og'irlashtiruvchi yoki hal qiluvchi omil sifatida qarash tavsiya etilgan.

Ish qo'zg'atilgan tegishli moddalar bo'yicha sud quyidagicha xulosalar qilgan:

3-modda – hukumat erining qilmishlariga munosabati uning jinoyatlarining og'irligiga qaramasdan, yaqqol adekvat bo'lmagan. Erga nisbatan tayinlangan qamoq jazosi ham jarima bilan almashtirilgan, yetti marta pichoq urilgan bo'lsa-da bo'lib bo'lib to'lashga jarima berilgan. Bundan tashqari mazkur vaziyat 1998-yilgacha sodir bo'lgan. 4320-sonli qonun kuchga kirgan kirganligi sababli Turkiya qonunchiligi oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilish uchun maxsus ma'muriy va politsiya choralarini nazarda tutgan va shunga qaramay arizachining ishida mavjud choralar va sanksiyalar samarali qo'llanilmagan.

14-; 2- va 3-moddalar yuzasidan – sud davlatlarning aksariyati tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqning tegishli normalari va tamoyillariga muvofiq, hatto qasddan bo'lmasa ham davlat tomonidan ayollarni oiladagi zo'ravonlikdan himoya qilmaslik ularning qonun tomonidan teng himoyalaniish huquqini



buzganligini ta'kidladi. Hukumat hisobotlariga ko'ra maishiy zo'ravonlik qurbonlarining barchasi ayollar bo'lgan. Shuningdek, hisobotlarda oiladagi zo'ravonliklarga rasmiylar tomonidan toqat qilinganligi va mavjud vositalar ishlayotgani aytilgan. Shunday qilib, uydagi zo'ravonlik asosan ayollarga ta'sir ko'rsatdi, Turkiyadagi umumiy va kamsituvchi sud passivligi unga qulay muhit yaratdi. Shuning uchun arizachi va uning onasi tomonidan ko'rilgan zo'ravonlik jinsga asoslangan va ayollarga nisbatan kamsitish sifatida baholanishi mumkin. Bu holatdan keyin Yevropa Inson huquqlari sudi Turkiyani aybdor deb tan oldi va gender zo'ravonlikni diskriminatsiya shakli sifatida ko'rinishi deb hisobladi. **Yevropa Kengashining "Ayollarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi Istanbul Konvensiyasi** yaratildi.

Inson huquqlari bo'yicha Amerikalararo sudi tomonidan ko'rib chiqilgan **"Linda Loaiza Lopez Soto"** ishi. Lopez Soto 18 yoshga to'lganda deyarli 4 oy davomida o'g'irlab ketilgan, asirga olingan, doimiy zo'rlangan, qiynoqqa solingan va jinsiy qullik sharoitida saqlangan. Sud bir ovozdan Venesuela Lopez Sotoni Inson huquqlari bo'yicha Amerikalararo konvensiyasidagi ko'plab huquqlarini buzgan deb topdi. Jumladan, **shaxsiy daxlsizlikka, qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalalarni taqiqlash, qullikni, shaxsiy erkinlikni, adolatli sudlovni, qadr-qimmatni, avtonomiyani va shaxsiy hayotni taqiqlash, harakat va yashash erkinligi, sud himoyasi va qonun oldida tengligi** va boshqalar. Sud Lopez Sotoning qiynoqlari va jinsiy zo'ravonliklari uchun javobgarlarni jazolash uchun samarali jinoiy jarayonni o'tkazishni buyurdi. Moddiy va ma'naviy zararlar uchun moliyaviy kompensatsiya to'lash, ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha milliy ma'lumotlar bazasini yaratish, qonunchilik va institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalarni yuklagan. Bundan tashqari Lopez Sotoning o'zi va oila a'zolariga o'zlari tanlagan mutaxassislar tomonidan zarur tibbiy va psixologik



yordam ko'rsatish kerakligini ko'rsatdi. Shuningdek, sud davlatga Lopez Soto nomi bilan milliy o'quv dasturida o'qitiladigan ta'lim dasturini yaratishni buyurgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ayollarning huquqlarini ta'minlash hozirgi kunga kelib o'tgan asrdagiga qaraganda ancha ommalashgan. Ya'ni ayollar erkaklar bilan bir qatorda davlat hamda jamiyat ishlarida, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

Respublikamiz hududida maishiy zo'ravonlikka uchragan ayollarga tegishli yordam ko'rsatilib, himoya orderlari berilmoqda. Bundan tashqari chekka hududlardagi aholi qatlamini hamda konvensiyalarga qo'shilmagan yoki ratifikatsiya qilmagan davlatlarda ham ayollar huquqlarini boshqalar barobarida ta'minlashni, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni cheklashni va ular barobarida erkaklar bilan bir qatorda imtiyoz va huquqlarga ega bo'lishlarini ta'minlashni hamda mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlikni, ogohlantirish kampaniyalarini, monitoring va baholash agentliklarini tashkil etishni, joylarda seminar-treninglar tashkil qilinishini va tadqiqotlar natijasida o'quv materiallari ishlab chiqilishi bizningcha maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt. <https://lex.uz/docs/-2640479>
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt. <https://lex.uz/docs/-2686000>
3. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllarig barham berish to'g'risidagi konvensiya. <https://lex.uz/docs/-2685528>



4. Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 3-son qarori.
<https://lex.uz/ru/docs/-4676892>
5. OPUZ v. TURKEY – HUDOC – Council of Europe.
<https://hudoc.echr.coe.int/fre?i=001-92945>
6. The case of Linda Loaiza. <https://cejil.org/en/blog/transforming-pain-and-wounds-in-the-search-for-justice-the-case-of-linda-loaiza/>
7. Beijing Declaration and Platform for Action. (Tarjima)
<https://www.unwomen.org/en/digital-library/publications/2015/01/beijing-declaration>